

**YOG‘OCH O‘YMAKORLIK SAN‘ATINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT
BOSQICHLARI**

Xusnutdinova Fazilat Abdumananovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yog‘och o‘ymakorlik san‘atining kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida yog‘och o‘ymakorlik san‘atining rivojlanishi, uning me‘morchilik va amaliy bezak san‘atidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mashhur yog‘och o‘ymakor ustalar, ularning ijod namunalari va tarixiy davrlarga oid asarlar haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: yog‘och o‘ymakorlik, amaliy san‘at, milliy bezak, me‘morchilik, an‘ana, ustalar.

THE ORIGIN AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF WOODCARVING

Master’s student at the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod

Annotation: This article examines the origin and stages of development of wood carving art. Particular attention is paid to the development of wood carving in Central Asia and Uzbekistan, its role in architecture and decorative arts. The article also presents information about prominent wood carving masters and their creative works.

Keywords: wood carving, decorative art, architecture, tradition, ornament, masters.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ

Хуснутдинова Фазилат Абдуманановна

**Студент магистратуры Национального института искусства и дизайна имени
Камолитдин Бехзода**

Аннотация: В статье рассматриваются происхождение и этапы развития искусства резьбы по дереву. Анализируется развитие данного вида декоративно-прикладного искусства в Центральной Азии и Узбекистане, его роль в архитектуре и художественном оформлении. Приводятся сведения о выдающихся мастерах резьбы по дереву и их творческих работах.

Ключевые слова: резьба по дереву, декоративно-прикладное искусство, архитектура, традиция, орнамент, мастера.

Xalq amaliy bezak san‘ati o‘zinig nafisligi, betakrorligi kishilarning ma‘naviy olamini boyitishi bilan ajralib turadi. Yog‘och o‘ymakorligi qadimdan taraqqiy etgan amaliy san‘at turlaridan biridir. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san‘ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi¹. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san‘at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san‘ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya‘ni ibtidoiy jamiyatga borib taqaladi.

¹ G‘ulomov K.M. Amaliy san‘at // Toshkent, “Iqtisod moliya”, 2007.

Ma'lumki, xalq amaliy bezak san'ati kishilarning badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbaalardan biri hisoblanadi.

Mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o'rinda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlari juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ya'ni, bunday san'at asarlari ayni choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.



Maqsud Qosimov (1905–1965-y) Yog'och o'ymakor usta

O'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yrachilik kabi turlari o'ziga xos bajarish texnologiyalariga ega. O'zbekiston va umuman O'rta Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko'p sonni tashkil etadi.

Amaliy bezak san'ati turlari orasida eng keng tarqalgan turi yog'och o'ymakorligi san'atidir. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlarga chizib, kesib, o'yib, ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Qadimgi Sharqda, antik dunyo me'morligida keng tarqalgan, Yevropa, Osiyo mamlakatlarida xilma-xil uslublari vujudga kelgan.

O'zbekiston xududida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Toshkent, Xiva, Qo'qon, Farg'ona, Buxoro Yog'och o'ymakorligi shakllangan. Toshkentlik ustalar o'yima naqshlarda yassi bo'rtmali, zaminsiz chizmani keng qo'llaganlar. Xivada mahobatli Yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan, naqshning maydaligi, zaminning kamligi, o'ynoqiligi bilan ajralib turadi, bu yerlik

ustalar yog‘ochning tabiiy rangini saqlab qolganlar, bo‘yamaganlar. Samarqandlik ustalar zamin va bo‘rtmani loklaganlar. Yog‘och o‘ymakorligi – o‘ymakorlik turi, badiiy hunarmandlikning qad. va keng tarqalgan sohasi. Yog‘ochni kesib, o‘yib, chizib, zaminni teshib naqsh, bo‘rtma shakllar hosil qilib, yog‘och taxtacha va bo‘laklarini birbiriga ulab, yopishtirib (asosan panjaradya) handasiy shakllar, o‘simliksimon tasvirlar, islmiy naqshlar hosil qilinadi. Usta naqshni bezatiladigan sirtga axta vositasida tushiradi, ustidan naqsh chiziq-lari chizib chiqiladi, so‘ng asbob (iskana)lar yordamida o‘yiladi. O‘yishda turli usullar (pargari, bag‘dodi) keng qo‘llanadi. Yog‘och o‘ymakorlik san’atining dastlabki namunalari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda yog‘ochdan yasalgan buyumlar turmushda keng qo‘llanilgan. Ilk o‘ymakorlik namunalari asosan maishiy buyumlar, idishlar, qurollar va diniy ramzlar ko‘rinishida bo‘lgan.



Xivadagi Juma masjid ustunlari

O‘zbekiston hududida ham qadimdan me‘morlikda, ro‘zg‘or buyumlarida ko‘p qo‘llangan. Movarounnahrda islom dini tarqalguniga qadar yog‘och sanamlar tayyorlash rivoj topgan. Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida 8-asrda eshiklar o‘yma tasvirlar bilan bezatilgani haqida yozadi. Yog‘och tashqi muhit ta‘siriga ancha chidamsizligidan Yog‘och o‘ymakorligining qadimiy namunalari saqlanmagan. Saqlanganlarining eng qadimgisi IX—XII-asrlarga mansub. Qusam ibn Abbos maqbarasi bino sharafalari naqshlar bilan bezatilgan, zabarravlarida qushlar, afsonaviy maxluqlarning tasvirlari ishlangan (Samarqand, XI — XII-asrlar). Buxoroda Sayfiddin Boharziy maqbarasining to‘sinlari (XIV-asr), Samarqandda Ruhobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi eshiklariga ishlangan naqshlar ulkan mahorat samarasidir. Buxorodagi Ulug‘bek madrasasining eshiklari qismlariga yog‘och taxtachalardan yelimsiz, mix ishlatmay girih naqshlar hosil qilingan. 19-asrda Xorazm uslubi yuksakka ko‘tarilgani Xivadagi Juma masjid ustunlari, Toshhovli ayvonlari, xonalaridagi ustunlarning kallagi, boshalariga ishlangan muqarnaslarda, eshiklarning bezaklarida ko‘zga

tashlanadi. O‘zbekiston xududida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro Yog‘och o‘ymakorligi shakllangan.



Ortiq Fayzullayev(1933-2023).Toshkent Yog‘och o‘ymakorligi

Toshkentlik ustalar o‘yma naqshlarda yassi bo‘rtmali, zaminsiz chizmani keng qo‘llaganlar. Xivada mahobatli Yog‘och o‘ymakorligi keng tarqalgan, naqshning maydaligi, zaminning kamligi, o‘ynoqiligi bilan ajralib turadi, bu yerlik ustalar yog‘ochning tabiiy rangini saqlab qolganlar, bo‘yamaganlar. Yog‘och o‘ymakorligi ko‘p mehnat talab qiladigan soha, unda naqsh mujassamotida girih, islimiy naqshlar keng ishlatiladi, mustaqil ravishda girih kamdan kam hollarda qo‘llanadi; girih va islimiy naqshlar uyg‘unlashtirilib, rangbarang jozibali mujassamotlar, namoyonlar yaratiladi. Bezak (naqshlar) yaratishda pargardan ko‘proq foydalanilishi tufayli naqshlar pargari deb ataladi. Yog‘och o‘ymakorligi o‘yib bir necha qavat bo‘rtma tasvir hosil qilinadigan (1,5 mm dan 30 mm gacha o‘yiladigan) murakkab va jozibali turi shakllangan. Yog‘och o‘ymakorligi bezaklari asrlar davomida ustalar tomonidan rivojlantirilib, taraqqiy etib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduqodirov A. “Obidalar jilvasi”. –T., “O‘zbekiston”, 1972
2. Avedova N.A. “Toshkent o‘ymakorligi”. –T., O‘z. Dav. Badiiy adabiyot nashr.
3. Bulatov S.S. “O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati”, -T., “Mehnat”, 1991
4. G‘ulomov K.M. Amaliy san‘at // Toshkent, “Iqtisod moliya”, 2007.
5. Kreyndlin L.N. “Yog‘ochsizlik ishlari”, -T., “O‘qituvchi”, 1978,